O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS INSTITUTI
“MENEJMENT” KAFEDRASI

“IQTISODIY TARAQQIYOT VA SAMARALI BOSHQARUV: XALQARO TAJRIBA, TENDENSIYALAR VA DOLZARB MASALALAR”

xalqaro ilmiy-amaliy anjuman

MATERIALLARI TO‘PLAMI

(I qism)

(2023 yil 10 - 11 noyabr)

SAMARQAND – 2023

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS INSTITUTI

“MENEJMENT” KAFEDRASI

«Iqtisodiy taraqqiyot va samarali boshqaruv: xalqaro tajriba, tendensiyalar va dolzarb masalalar»

xalqaro ilmiy-amaliy anjuman
MATERIALLARI TO‘PLAMI

(I qism)

(2023-yil 10-11-noyabr)

SAMARQAND – 2023

МИНИСТЕРСТВО ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ, НАУКИ И ИННОВАЦИЙ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

САМАРКАНДСКИЙ ИНСТИТУТ ЭКОНОМИКИ И СЕРВИСА

КАФЕДРА “МЕНЕДЖМЕНТ”

“Экономическое развитие и эффективное управление: международный опыт, тенденции и актуальные проблемы”

СБОРНИК МАТЕРИАЛОВ
международной научно-практической конференции

(часть I)

(10-11 ноября 2023 г.)

САМАРКАНД – 2023

UO‘K: 338.1
T 8
KBK: 65.011ya43

Iqtisodiy taraqqiyot va samarali boshqaruv: xalqaro tajriba, tendensiyalar va dolzarb masalalar// Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari. 2023 yil 10-11 noyabr. Samarqand, SamISI, 2023. – 237 bet.

To‘plovchi va nashrga tayyorlovchi:
F.U. Tursunov – iqtisod fanlari nomzodi, dotsent.

Nashr uchun mas’ullar:
D.X.Aslanova- iqtisod fanlari nomzodi, professor
M.T.Alimova – iqtisod fanlari doktori, professor
B.B.Raxmatov – iqtisod fanlari nomzodi, dotsent
A.E.Tangirov - iqtisod fanlari nomzodi, dotsent
M.E.Ahtamova– iqtisod fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent v.b.
N.A.Usmanova - iqtisod fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent v.b.
Z.K.Raximov - iqtisod fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent v.b.

Sahifalovchi: B.M.Abdumannonov – SamISI “Menejment” kafedrasi assistent-stajyori

Ilmiy – amaliy konferensiya materiallarida “Iqtisodiy taraqqiyot va samarali boshqaruv: xalqaro tajriba, tendensiyalar va dolzarb masalalar”ga oid yo‘nalishlar yoritilgan. Unda “Hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish xususiyatlari va tendensiyalari”, “Yashil” iqtisodiyot va barqaror rivojlanishning dolzarb masalalari”, “Iqtisodiyotning barcha soha va tarmoqlarida samarali faoliyat va yuqori o‘sish sur’atlarini ta’minlashda boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirish yo‘nalishlari”, “Standartlashtirish va sifat menejmenti: xalqaro tajriba va zamonaviy tendensiyalar”, “Ijtimoiy-iqtisodiy tizimlarni innovatsion rivojlantirishning dolzarb masasalari”ni hal qilishga qaratilgan ilmiy-nazariy va amaliy tavsiyalarga boy maqola va tezislar o‘rin olgan.

Tezislar mualliflar tahririda bosilmoqda. Ularda keltirilgan raqamlar, faktlar, xulosa va tavsiyalarga mualliflar mas’ul. Ularning ayrim fikrlari tashkiliy guruh qarashlariga to‘g‘ri kelmasligi mumkin.

Экономическое развитие и эффективное управление: международный опыт, тенденции и направления, связанные с актуальными проблемами, освещены в материалах научно-практической конференции. Он включает “Особенности и тенденции социально-экономического развития регионов”, “Актуальные проблемы «зеленой» экономики и устойчивого развития”, “Направления совершенствования механизмов управления для обеспечения эффективной работы и высоких темпов роста во всех отраслях и отраслях

экономики”, “Стандартизации и управления качеством: международный опыт и современные тенденции”, статьи и диссертации, богатые научно-теоретическими и практическими рекомендациями, направленными на решение актуальных проблем инновационного развития социально-экономических систем.

Тезисы редактируются авторами. Авторы несут ответственность за представленные в них цифры, факты, выводы и рекомендации. Некоторые их мнения могут не соответствовать взглядам организационной группы.

Economic development and effective management: international experience, trends and directions related to current problems are covered in the materials of the scientific and practical conference. It includes features and trends in the socio-economic development of regions, current problems of the green economy and sustainable development, directions for improving management mechanisms to ensure effective operation and high growth rates in all sectors and sectors of the economy, standardization and quality management. : international experience and modern trends, articles and dissertations, rich in scientific, theoretical and practical recommendations aimed at solving current problems of innovative development of socio-economic systems.

Abstracts are edited by the authors. The authors are responsible for the figures, facts, conclusions and recommendations presented in them. Some views of the authors may not coincide with the views of the organizing group.

ISBN:

© Samarqand iqtisodiyot va servis instituti, 2023.
© “STEP-SEL” MChJ. Nashriyoti, 2023.

V SHO‘BA. IJTIMOIY-IQTISODIY TIZIMLARNI INNOVATSION RIVOJLANTIRISHNING DOLZARB MASALALARI.

S.B.Boboqulov – SamISI, “Raqamli iqtisodiyot” kafedrasi dotsent v/b, i.f.f.d.

UY-JOY KOMMUNAL XIZMAT KO‘RSATISH INFRATUZULMASINING IJTIMOIY-IQTISODIY MOHIYATI

Anotatsiya. *Muallif tamonidan keltirilgan maqolada uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish infratuzilmasini ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati tadqiq etilib, sohani rivojlantirish bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.*

Kalit so‘zlar: *xizmat ko‘rsatish, uy-joy kommunal xizmat, servis, yondashuv, innovatsiya, ijtimoiy, turmush darajasi.*

Аннотация. *В статье, представленной автором, изучена социально-экономическая природа инфраструктуры жилищно-коммунального хозяйства, а также разработаны предложения и рекомендации по развитию отрасли.*

Ключевые слова: *услуга, жилищно-коммунальное хозяйство, сервис, подход, инновации, социальный, уровень жизни.*

Abstract. *The article presented by the author examines the socio-economic nature of the housing and communal services infrastructure, and also develops proposals and recommendations for the development of the industry.*

Keywords: *service, housing and communal services, service, approach, innovation, social, standard of living.*

Dunyo mamlakatlarida raqamli iqtisodiyotga o‘tish sharoiti hamda aholiga kommunal xizmat ko‘rsatish sohasi aholi turmush darajasini yuksalishining asosiy omillaridan biri sifatida qaraladi. “Bugungi kunda jahonda aholi sonini tobora ortib borishiga mutanosib ravishda uy-joy fondi kengayib borishi, jumladan, uy-joy 2022 yilda rivojlangan mamlakatlardan Amerika Qo‘shma Shtatlarida 148,7 mln., Buyuk Britaniyada 287,5 mln., Germaniyada 64,1 mln., Fransiyada 47,4 mln., va Kanadada 143,2 mln. tani tashkil etadi”[86]. Aholiga kommunal xizmat ko‘rsatish sohasining rivojlanish holati jamiyat a’zolarining eng muhim ijtimoiy ehtiyojlarini qondirish asosida ularning mehnat qilish qobiliyatini tiklash bilan birga mamlakat iqtisodiyotida energiya resurslarining sezilarli qismini iste’mol qilayotganligi tufayli jamiyat taraqqiyotining bugungi bosqichida ushbu sohani rivojlantirish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Yashash joylarida aholi sonining ko‘payib borishi o‘z navbatida uy-joy kommunal xizmatlarga ehtiyojning ortib borishiga olib keladi. Masalan, hozirgi kunda chekka hududlarda joylashgan kichik qishloqda faqat elektr-energiyasi ta’minoti kommunal xizmati tashkil etilgan, qishloq joylari va aholi yashash markazlarida (posyolkalar) elektr-energiyasi, gaz va ichimlik suvi ta’minoti

[86] https://www.statista.com/statistics/2402678/number-of-housing-unitis

kommunal xizmati tizimi faoliyat ko‘rsatsa, shaharlarda esa kommunal xizmatlarning turli-tuman shakllari mavjud. Aholi sonining ko‘payib borishi ma’lum hudud chegaralarining kengayib borishiga, kommunal xizmatlar tizimining takomillashib borishiga va vaqt o‘tishi bilan qishloq joylarining aholi yashash markazlariga, aholi yashash markazlarini esa shaharlarga aylanishiga olib keladi[87].

Shahar bu yirik aholi yashovchi ma’muriy hudud bo‘lib, u ishlab chiqarish, savdo va madaniyat markazi hisoblanadi. Shahar kommunal xo‘jalik tizimi nafaqat aholining farovon yashashi uchun shart-sharoit yaratuvchi, balki barcha turdagi ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish korxonalari, ijtimoiy soha va ma’muriy boshqaruv tizimi korxona va tashkilotlariga turli kommunal xizmatlar ko‘rsatuvchi korxonalar majmuasidan tashkil topadi. Yuridik mavq’ega ega bo‘lgan har qanday korxona o‘z faoliyatida kommunal xizmatlarning u yoki bu turlaridan foydalanadi[88].

Uy-joy kommunal xizmatlari ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarning tizimiga davlat hokimiyati va mahalliy boshqaruv organlarining manfaatlari hamda o‘zaro hamkorligi, kommunal xizmatlar iste’molchisi sifatida esa korxonalar va tashkilotlar, tadbirkorlar hamda aholi kiradi[89]. Aholiga uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish tizimini boshqarishda keng ko‘lamli tadbirlarni o‘z ichiga oladi va ular uchta sektorga bo‘linadi. Birinchidan, turar-joy majmuasi, ko‘chmas mulklarni (maishiy xizmat, savdo va ofis binosi, dam olish, ta’lim muassasalari, madaniy-ma’rifiy va sog‘liqni saqlash muassasalari va h.k.) normal ishlashini ta’minlaydigan xizmatlar. Ikkinchisi, qulay yashash sharoitlarini ta’minlash uchun zarur bo‘lgan resurslarni (suv ta’minoti, kanalizatsiya xizmatlari, issiqlik ta’minoti, elektr-energiyasi ta’minoti va gaz ta’minoti kommunal xizmatlari) ishlab chiqarish va yetkazib berish bilan shug‘ullanadigan kommunal xizmatlar. Uchinchisi, shahar atrof-muhitini yaxshilashning zarur darajasini ta’minlash uchun barcha ishlarni amalga oshiruvchi kompleks majmui (shahar yo‘llari va ko‘priklarni qurish hamda ta’mirlash, obodonlashtirish, landshaftni saqlash, sanitariya-gigiena holatini tozalash, dam olish va h.k.) va maxsus xizmatlar (aholi uchun marosim xizmatlari) bilan ta’minlashdir.

Uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatishning asosiy vazifasi aholi turmush farovonligi darajasini oshirish, tizim infratuzilmasini samarali, barqaror va ishonchli ishlashini ta’minlash orqali shakllantirilishi mumkin. Buning uchun, kommunal xizmatlarning sifatini yuksaltirish va aholini ijtimoiy himoya qilish bilan birgalikda erishish mumkin.

Hozirgi davrda jahon banki mutaxassislari uy-joy kommunal xizmat infratuzilmasi omillarining ta’sir qilishi ko‘lamini kengaytirganligini da’kidlaydi. Bular quyidagilardan iborat:

---

[87] Bobokulov S.B. Diversifying the service field under digitalization. American Journal of Interdisciplinary Research and Development ISSN Online: 2771-8948 Website: www.ajird.journalspark.org Volume 11, Dec., 2022

[88] В.У.Ёдгоров, Д.Я.Бутунов Уй-жой коммунал хўжалиги иқтисодиёти ва бошқаруви. Дарслик. Тошкент. 2012 йил. 17 бет.

[89] Скрипник О.Б. Реформирование регионального жилищно-коммунального комплекса: методология и практика. ISBN 978-5-279-03540-3 Москва: Финансы и статистика, 2013 г., 288 с.

– uy-joy kommunal xizmatlar tizimi iqtisodiy o‘sishning asosiy omili hisoblanadi;

– uy-joy kommunal xizmatlar xorijiy investitsiyalarni jalb qiladi va mamlakatda aholi turmush farovonligini oshiradi;

– uy-joy kommunal xizmatlar mahsulot va xizmatlar ishlab chiqarish jarayonida globallashuv imkoniyatlarini amalga oshirishga imkon beradi;

– uy-joy kommunal xizmatlar mamlakat rivojlanish natijalarini oshirishga va daromadlar bo‘yicha tengsizlikni kamaytirishga imkon beradi;

Kommunal xizmat ko‘rsatish infratuzilmalarining asosiy sub-sektori sifatida aholi yashovchi uy-joylari quyidagi xususiyatlarga ega:

Murakkablik va noaniqlik. Hozirgi paytda har bir mulk majmuasining tarkibiy qismlari (masalan, yer uchastkasi va u yerda joylashgan ob’yekt) tovar sifatida ajratilgan vaziyat yaratilgan.

Uzoq muddatli. Joylashuvi, tabiiy-moddiy tavsifi, arxitektura-rejalashtirish va konstruktiv-texnologik yechimlar bilan bog‘liq bo‘lgan eksklyuzivlik, shuningdek, vaqtinchalik va insoniy omillardir. Ob’ektning o‘ziga xosligi yoki eksklyuzivligi ma’lum bir ism, muhim (tarixiy) hodisalar bilan bog‘liq bo‘lsa va aksincha, ob’yekt vaqt faktorining (odatda rejalashtirilgan loyiha) afzalliklari bo‘lmasa, kommunal xizmatlar kamayadi[90].

Yuqori sarmoya intensivligi moddiy, moliyaviy va mehnat resurslarini yaratish bilan bog‘liq shuningdek, yuqori xarajatlar, tovarni sotuvchidan xaridorga topshirishning tayyorlash bosqichi va bozor munosabatlari natijasida uy-joylarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazishning uzoq muddatli davri bilan bog‘liq.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish infratuzilmasining mohiyati va uni yanada rivojlantirish bo‘yicha quyidagi taklif va tavsiyalarni amalga oshirish maqsadga muvofiq:

– uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish infratuzilmasida «Benuks» – raqamlashtirilgan boshqaruv nazoratini tizimini kommunal xizmatlarga o‘rnatish va takomillashtirish, «aqlli uy», «xavfsiz shahar», «aqlli shirkat» va «universal uy-joy kommunal xizmati»ni tashkil etishning innovatsion shakllarini amaliyotga keng joriy etish;

– uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatishda istiqbolli klaster guruhini tanlash, innovatsion faoliyatni rivojlantirish, moliyaviy qo‘llab-quvvatlash hamda kommunal xizmat ko‘rsatish tizimi faoliyatini monitoring qilish va baholash bo‘yicha kuzatuv kengashini tashkil etish asosida aholiga kommunal xizmat ko‘rsatish klasterini shakllantirish;

– uy-joy kommunal xizmatlar bozorining barcha ishtirokchilari o‘rtasida institutsional tarmoqlarni shakllantirish, aholiga uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish tizimida xususiy kapitallarni jalb qilish ishlarini amalga oshirish.

[90] Ilyasovna A. S. METHODS OF EVALUATING THE QUALITY OF HOUSEHOLD SERVICES AND WAYS TO IMPROVE IT //World Economics and Finance Bulletin. – 2022. – T. 17. – C. 106-108.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. В.У.Ёдгоров, Д.Я.Бутунов Уй-жой коммунал хўжалиги иқтисодиёти ва бошқаруви. Дарслик. Тошкент. 2012 йил. 17 бет.
2. Скрипник О.Б. Реформирование регионального жилищно-коммунального комплекса: методология и практика. ISBN 978-5-279-03540-3 Москва: Финансы и статистика, 2013 г., 288 с.
3. Ilyasovna A. S. METHODS OF EVALUATING THE QUALITY OF HOUSEHOLD SERVICES AND WAYS TO IMPROVE IT //World Economics and Finance Bulletin. – 2022. – Т. 17. – С. 106-108.
4. Bobokulov S.B. Diversifying the service field under digitalization. American Journal of Interdisciplinary Research and Development ISSN Online: 2771-8948 Website: www.ajird.journalspark.org Volume 11, Dec., 2022
5. https://www.statista.com/statistics/2402678/number-of-housing-unitis

Халиков Йўлчи Мухаммадюсупович - СамИСИ мустақил изланувчиси

ИЖТИМОИЙ ХИЗМАТ КЎРСАТИШ ТАРМОҚЛАРИНИНГ ИҚТИСОДИЁТДАГИ ЎРНИ ВА ЯНГИ ПАЙДО БЎЛГАН ИЖТИМОИЙ ХИЗМАТЛАР ТУРИНИНГ РИВОЖЛАНИШИ

Аннотация: *Мақолада ижтимоий хизмат кўрсатиш тармоқларининг нафақат иқтисодиётдаги балки, ижтимоий соҳадаги аҳамияти, янги турдаги ижтимоий хизмат турлари келтирилган бўлиб, ҳозирги кунда мамлакат хизмат кўрсатиш соҳасидаги улушларининг ўзгариши, ижтимоий хизмат кўрсатиш тармоқларини ривожлантириш бўйича таклиф ва тавсиялар баён этилган.*

Аннотация: *В статье описывается роль сетей социального обслуживания не только в экономике, но и в социальной сфере, новых видах услуг, и теперь предлагается изменение доли сфере услуг страны, предложений по развитию отрасля социалных услуг.*

Abstract: *The article describes the role of social service networks not only in the economy, but also in the social sphere, new types of services, and now it is proposed to change the share of the service sphere the country, proposals for the development of the social services sector.*

Калит сўзлар: *рақамли иқтисодиёт, хизматлар соҳаси, сервис, ижтимоий хизмат, стратегия,ижтимоий хизматлар бозори.*

Ижтимоий хизмат кўрсатиш тармоқлари аҳолининг барча қатламларини қамраб олади ва жамиятда содир бўлаётган деярли барча ижтимоий-иқтисодий жараёнларга таъсир кўрсатади бу эса мазкур масаланинг қанчалик муҳим ва аҳамиятли эканлигини кўрсатиб беради. Янгиланаётган Ўзбекистонда мамлакат аҳолисининг бандлигини, даромадларини ва турмуш сифатини оширишнинг муҳим йўналишлари ва омилларидан бири сифатида ижтимоий хизмат кўрсатиш тармоқларини жадал ривожлантириш бўйича тизимли ишлар амалга оширилди. Бундан

Q.S.Maxmudov	SIFATNI BOSHQARISHGA TURLI YONDOSHUVLAR VA ULARNING O‘ZIGA XOS JIHATLARI	174-178
Q.S.Maxmudov	SIFATNI SAMARALI BOSHQARISH RAQOBAT KURASHIDA ASOSIY OMIL SIFATIDA	178-181
X.Q. Qarshiboyev F.X.Qilichova	IQTISODIY MASALALARNI MATRITSAVIY USULDA YECHISH	181-185
Qilichov Bobir Xo‘jaqul o‘g‘li	BOZOR IQTISODIYOTI SHAROITIDA KORXONALARNI BOSHQARISH	186-189
Ж.Б.Ахтамов	ОЛИЙ ЎҚЎВ ЮРТЛАРИДА ЁШЛАРНИНГ БАРКАМОЛ ТАРБИЯЛАШДА МАЪНАВИЙ ҚАДРИЯТЛАРНИНГ ЎРНИ	190-193
X.T. Buriyev I.A. Usmanov Sh.A.Po‘latov	QURILISH KORXONALARIDA SIFATNI BOSHQARISH KONSEPSIYALARINING XUSUSIYATLARI	193-197
V SHO‘BA. IJTIMOIY-IQTISODIY TIZIMLARNI INNOVATSION RIVOJLANTIRISHNING DOLZARB MASALALARI		
S.B.Boboqulov	UY-JOY KOMMUNAL XIZMAT KO‘RSATISH INFRATUZULMASINING IJTIMOIY-IQTISODIY MOHIYATI	198-201
Халиков Йўлчи Мухаммадюсупович	ИЖТИМОИЙ ХИЗМАТ КЎРСАТИШ ТАРМОҚЛАРИНИНГ ИҚТИСОДИЁТДАГИ ЎРНИ ВА ЯНГИ ПАЙДО БЎЛГАН ИЖТИМОИЙ ХИЗМАТЛАР ТУРИНИНГ РИВОЖЛАНИШИ	201-206
Mirzayev Q.J. Axrorova M.F.	TIBBIY XIZMATLARNI RIVOJLANTIRISH IMKONIYATLARI	206-209
Ахтамова Мохигул Эркиновна Зиёдиллоева Фарахноз Нарзиллоевна	АКТУАЛЬНЫЕ ВОПРОСЫ ИННОВАЦИОННОГО РАЗВИТИЯ СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКИХ СИСТЕМ	209-213
Ахтамова Мохигул Эркиновна Расулова Камилла Уктамовна	ОСОБЕННОСТИ И ТЕНДЕНЦИИ РАЗВИТИЯ БИЗНЕСА В ЭПОХУ ГЛОБАЛИЗАЦИИ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН	213-216